BYUDJET XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Ergashev Abrorjon Baxromjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 01.02.2026 **Tasdiqlandi**: 02.02.2026
Ko'rib chiqildi: 02.02.2026

Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat vazifalarining samarali bajarilishi, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Shu boisdan, davlatning zimmasida bo'lgan ijtimoiy va siyosiy faoliyatni amalga oshirilishining moliyaviy asoslari davlat moliyasida budjet mablag'lari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Mamlakat davlat moliyasida budjet islohotlari davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan holda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat moliyasida budjet mablag'laridan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Davlat moliyasida budjet siyosatining mohiyati davlat zimmasidagi vazifalarni bajarishida budjet xarajatlarining mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi bilan belgilanishi tarixiy tajribadan ma'lum. O'z o'rnida, davlat moliyasida budjet mablag'laridan foydalanish orqali davlat jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga harakat qiladi. Ma'lumki, moliya kategoriyasining funksiyasida taqsimlash (qayta taqsimlash) jarayoni yuzaga keladi. Moliya tizimida mamlakatdagi yaratilgan yalpi qiymatning bir qismi soliqlar yordamida budjet tizimiga taqsimlanadi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'zlarining daromad va mulklari hisobidan davlatga majburiy to'langan soliqlar davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Natijada, moliyaning qayta taqsimlash funksiyasi yordamida davlat ixtiyorida jamlangan mablag'lar budjet yordamida qayta taqsimanadi. Mazkur jarayonda esa, davlat mamlakatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash vazifalarini moliyaviy ta'minlash uchun yo'naltiradi. Shu boisdan, budjet xarajatlari doirasida davlatda mavjud bo'lgan vazifalarni optimallashtirish orqali mablag'lardan samarali foydalanishning zaruriyati kelib chiqadi. Fikrimizcha, mazkur vazifalarni moliyaviy mablag'larning hajmi bilan emas, balki bozor mexanizmlarining ishlash prinsiplari asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Sababi, mablag'larning yetishmasligidan vazifalarni qisqartirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Budjet xarajatlarini optimal taqsimlash, eng dolzarb masalalarni o'zida aks ettirgan sohalarga mablag'larni yo'naltirish budjet siyosatining ustuvorliklarini o'zida aks ettiradi.

A.Smit o'zining nazariyasida davlat zimmasida bir qator majburiyatlar mavjudligini qayd etib o'tib, davlat budjetidan moliyalashtirish nuqtai nazaridan quyidagi uchta sohaga e'tibor qaratadi (Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. http://www.pseudology.org

/business/Adam_Smith_Bogatstvo_narodov2.pdf):

– mudofaaga xarajatlar;
– adolat (ijtimoiy tenglik nazarda tutilgan) uchun xarajatlar;
– jamoat ishlari va jamoat muassasalari uchun xarajatlar.

Mudofaaga xarajatlar haqida fikr yuritilganda, davlat tomonidan tinchlik davrlarida ham harbiy xarajatlarning amalga oshirilishi va uning zaruriyati to‘g‘risidagi yondashuvlarni bayon etib o‘tadi. Adolat nuqtai nazaridan xarajatlarni amalga oshirishda aholini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash nazarda tutiladi. Jamoat muassasalarini moliyalashtirish haqida fikrlar bildirilganda, aholining tayanch ta’lim olish va kasbga yo‘naltirish borasidagi davlat xarajatlari muhim o‘rin tutishi qayd etib o‘tiladi. A.Smit bozor iqtisodiyoti davlat aralashuvisiz tinchlik yoki ijtimoiy adolatni ta’minlay olmasligini ta’kidlab o‘tadi. Shu nuqtai nazardan, eng yaxshi budjet – bu balanslashtirilgan budjet, deb qayd etib o‘tgani alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Amir Temur davrida ham budjet siyosatining o‘ziga xos fundamental asoslari yaratilgan. Jumladan, Sohibqiron saltanatida bir nechta vazir faoliyat olib borgan. “Birinchi vazir mamlakat va aholi ishlari vaziri bo‘lgan, u soliq va o‘lponlarni to‘plash, taqsimlash, kirim-chiqimlarni belgilash va hisob-kitob qilish, mamlakatning obodonligi bilan shug‘ullangan. Ikkinchi vazir – qo‘shinlar vaziri bo‘lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evaziga beriladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan. Uchinchi vazir – egasiz qolgan mulklarni boshqarish va davlatga tushadigan zakot hamda bojlarni saqlash bilan shug‘ullangan. Qolgan uchta vazir chegara tumanlaridagi moliyaviy masalalar bilan shug‘ullangan. Hadya qilingan mamlakatlarda soliqlarni yig‘ib, aholining kayfiyatini kuzatib turuvchi, xarajatlarni chiqim daftariga yozib boruvchi ikki nafar vazir tayinlangan. Barcha vazirlar devonbegiga bo‘ysunganlar (Muqimov Z., 2008.).

Ta’kidlash lozim, budjet xarajatlarining dolzarb iqtisodiy ko‘rsatkich ekanligi, uning mavjud bo‘lishi davlatning zimmasidagi vazifalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Fikrimizcha, budjet siyosatining nazariy jihatlari A.Smitning asarlarida o‘z aksini topib, unda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyalashtirish zaruriyatining konseptual asoslari aks ettirilgan. Unda davlat uchun birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy barqarorlik bilan birga, ijtimoiy soha xarajatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Bizningcha, Amir Temur tuzuklarida davlat budjeti tajribasining aniq amaliy fundamental asoslari yaratilgan va sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazilgan. Qayd etish lozim, budjetning obodonlashtirish xarajatlari bilan birga, mulklarni davlat ixtiyoriga o‘tkazish kabi noyob amaliy tajribalarni ham ko‘rish mumkin. Hattoki, bojxonada jamlanuvchi soliqlarga ham alohida e’tibor berilganligi ushbu tajribaning ilg‘or xususiyatga egaligini isbotlab turibdi.

Umuman olganda, budjet xarajatlari mamlakatdagi qo‘shilgan qiymatning

ma’lum qismini iqtisodiyotning o‘ziga qayta taqsimlash orqali muvozanatlashgan taqsimotni ta’minlab turadi. Uning obektiv sababini tinchlikni yoki ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni xususiylashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi bilan izohlash mumkin.